

## BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINI O'ZBEKISTON RASSOMLARINING BADIY ASARLARNI IDROK ETISH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

**Tursunova S.S.**

O'MPU 13.00.01- “Pedagogika nazariyasi.  
Pedagogik ta'limotlar tarixi” ixtisosligi 2-bosqich tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Mazkur tezisdagi bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining badiiy asarlarni idrok etish kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda milliy san'at namunalarining pedagogik imkoniyatlari ochib berilib, ayniqsa O'zbekiston rassomlari ijodidan foydalanish orqali talabalarda estetik tafakkur, badiiy tahlil va interpretatsiya ko'nikmalarini shakllantirish masalalari yoritiladi. Badiiy idrok tushunchasining tarkibiy komponentlari asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari milliy madaniy meros asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning samarali yo'llarini aniqlashga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** badiiy idrok, kompetentlik, tasviriy san'at ta'limi, estetik tafakkur, interpretatsiya, milliy san'at, pedagogik yondashuv, kasbiy tayyorgarlik, O'zbekiston rassomlari, badiiy tahlil

**Аннотация:** В данной работе анализируются научно-теоретические основы развития компетенции будущих преподавателей изобразительных искусств в восприятии произведений искусства. Исследование выявляет педагогический потенциал образцов национального искусства и, в частности, освещает вопросы формирования эстетического мышления, навыков художественного анализа и интерпретации у учащихся на примере работ узбекских художников. Обоснованы структурные компоненты концепции художественного восприятия. Результаты исследования служат для определения эффективных путей развития профессиональной компетенции на основе национального культурного наследия.

**Ключевые слова:** художественное восприятие, компетенция, образование в области изобразительных искусств, эстетическое мышление, интерпретация, национальное искусство, педагогический подход, профессиональная подготовка, узбекские художники, художественный анализ

**Abstract:** This paper analyzes the scientific and theoretical foundations for developing the competence of future fine arts teachers in perceiving works of art. The study identifies the pedagogical potential of national art and, in particular, highlights the development of students' aesthetic thinking, artistic analysis, and interpretation skills using the works of Uzbek artists as an example. The structural components of the concept of artistic perception are substantiated. The results of the study serve to identify effective ways to develop professional competence based on national cultural heritage.

**Key words:** artistic perception, competence, fine arts education, aesthetic thinking, interpretation, national art, pedagogical approach, professional training, Uzbek artists, artistic analysis

### **Kirish**

Zamonaviy ta'lim tizimida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ularning badiiy asarlarni chuqur

idrok etish, tahlil qilish va talqin etish qobiliyatini shakllantirish bugungi globallashuv sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki milliy madaniyat va san’atni yosh avlodga yetkazish, ularni estetik jihatdan tarbiyalash pedagogik faoliyatning muhim yo’nalishlaridan biridir.

O’zbekiston rassomlarining boy badiiy merosi talabalarda estetik didni rivojlantirish, san’atni anglash va qadrlash ko’nikmalarini shakllantirishda muhim didaktik manba hisoblanadi. Shu bois, mazkur tezisda bo’lajak o’qituvchilarning badiiy idrok kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini aniqlash, uning tarkibiy tuzilmasini ochib berish va samarali pedagogik yondashuvlarni asoslash maqsad qilib qo’yilgan.

AQSh muvaffaqiyatli mutaxassis sifatlarini aniqlashda “kompetensiya” tushunchasidan foydalanishni yo’lga qo’ygan dastlabki mamlakatlardan biridir. Kompetensiyalar tarkibida nafaqat egallangan va o’zlashtirilgan bilimlar, balki mutaxassisning nazariy hamda amaliy masalalarni mustaqil va ijodiy yondashuv asosida hal eta olish qobiliyati ham o’z ifodasini topadi. Kompetensiyalarni shakllantirish zarurati zamonaviy mutaxassis katta hajmdagi axborot oqimlarida yo’l topa olishi, yetishmayotgan bilimlarni mustaqil ravishda izlab topishi, o’z ustida ishlashi, kasbiy bilimlardagi bo’shliqlarni to’ldira olishi, qat’iyatli bo’lishi, mas’uliyatni o’z zimmasiga olishi hamda muayyan vaziyatlarda to’g’ri qaror qabul qila bilishi lozimligi bilan asoslanadi.

Kundalik hayotimizda biz rassomlar ijodi bilan har kuni, har bir qadamda duch kelamiz. Ammo ushbu ijodkorlarning faoliyatining ko’plab jihatlari haqida ko’pchilik deyarli bilmaydi. Rassomlar, haykaltaroshlar, me’morlar, kulollar, bastakorlar, yozuvchilar va boshqa ijodkorlar tomonidan yaratilgan asarlarni biz, shubhasiz, san’at asarlari deb ataymiz. Shunga qaramay, ko’plab ilm-fan vakillari, ziyolilarimiz, jumladan pedagoglar ham tasviriy san’atning turlari va janrlarini hamda ularning o’ziga xos namoyon bo’lish shakllarini farqlash imkonini beradigan bilimlarga ega emaslar.

O’zbekistonlik olimlar o’quvchilarning mustaqil badiiy ijodiy faoliyatini tashkil etish, bo’lajak san’at o’qituvchilarining ijodiy salohiyatini rivojlantirish, badiiy ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali usullari bo’yicha qator tadqiqotlar olib borgan. Xususan, B. B. Boymetov, S. S. Bulatov, S. S. Abdullaev, B. B. Azimov, N. X. Tolipov, K. G. Qosimov, R. X. Hasanov, S. Abdirasilov va boshqa tadqiqotchilar bu masalalarni o’rganishga katta hissa qo’shdilar<sup>1</sup>.

Yevropa Ta’lim Jamg’armasi glossariysida “kompetensiya” atamasi quyidagicha ta’riflanadi:

- Biror ishni yaxshi yoki a’lo darajada bajara olish qobiliyati.
- Ishga joylashishda qo’yiladigan talablarga mos kelish.
- Muayyan mehnat vazifalarini bajarish qobiliyati.

Biz “Tasviriy san’at” bakalavriat yo’nalishi talabalari umumta’lim maktablarida tasviriy san’atni o’qitishni tashkil etish metodlarini mukammal egallashlarini, shuningdek, realistik rangtasvir va zamonaviy san’at masalalarida, milliy rassomlarimiz asarlarini tahlil qila olib, badiiy idrok eta olish kompetensiyalarini rivojlantirish, nazariy bilimlar hamda rangtasvirning turli yo’nalishlarida yaxshi yo’l topa olishlarini istaymiz. Biz shunday xulosaga keldikki, janrlar bo’yicha kasbiy terminlarni egallash, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ularning dunyoqarashini shakllantirishga tayyor bo’lish zarur. O’zbekiston rassomlarining asarlarini tahlil qilish orqali talabalar badiiy obrazni chuqur idrok etish, muallif g’oyasini anglash, rang,

---

<sup>1</sup>1.Nigora Ibadullayeva. Urgench State University. Развитие художественно-творческих компетенций студентов Изобразительного художественного образования. Society and innovations Special Issue–10 (2024) / ISSN 2181-1415

kompozitsiya va shakl vositalarining ifodaviy imkoniyatlarini aniqlash ko'nikmalarini egallashi ilmiy jihatdan asoslandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, milliy san'at namunalaridan tizimli va maqsadga muvofiq foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning nafaqat kasbiy bilimlarini, balki ularning estetik dunyoqarashi va ijodiy tafakkurini ham rivojlantiradi. Bu esa o'z navbatida, ularning kelajak pedagogik faoliyatida o'quvchilarda badiiy idrok kompetensiyasini samarali shakllantirish imkonini kengaytiradi.

#### **Xulosa**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining badiiy asarlarni idrok etish kompetentligini rivojlantirishda O'zbekiston rassomlarining badiiy merosidan maqsadli va tizimli foydalanish yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Badiiy idrokning tarkibiy komponentlarini kompleks rivojlantirish talabalarning estetik tafakkuri, ijodiy fikrlashi va kasbiy tayyorgarligini sezilarli darajada oshiradi.

Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlab chiqilgan nazariy model ta'lim jarayonini takomillashtirishga xizmat qilib, bo'lajak o'qituvchilarning san'atni chuqur anglash va uni o'quvchilarga yetkazish qobiliyatini rivojlantiradi. Mazkur yondashuv uzluksiz ta'lim tizimida tasviriy san'atni o'qitish samaradorligini oshirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

#### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Vygotsky, L. S. Imagination and Creativity in Childhood. — Soviet Psychology, 1990, Vol. 28, №1, pp. 84–96.
2. Baymetov, U. S. I. B. B. (2020). Improving technical skills in pedagogical higher education institutions by teaching students to draw a master model. 2020/11." Science and Education" Scientific Journal, 1(8), 476-484.
3. Baymetov B.B. Oliy pedagogik ta'limda bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning ba'zi masalalari. Academic research in educational sciences. volume 2 | issue 1 | 2021. 277- 283 бетлар.
4. Nigora Ibadullayeva. Urgench State University. Развитие художественно-творческих компетенций студентов. Изобразительного художественного образования. Society and innovations Special Issue–10 (2024) / ISSN 2181-1415
5. Иванов Д. А. Компетентности и компетентностный подход в современном образовании / Д. А. Иванов. – М. : Чистые пруды, 2007. – 32 с